

TIJORAT BANKLARIDA TAVAKKALCHILIKKA ASOSLANGAN ICHKI AUDIT XIZMATI FAOLIYATINI REJALASHTIRISH BOSQICHLARI TADQIQI

Safarov Abdumajid Abdihamidovich

O'zbekiston Respublikasi Bank- moliya akademiyasi magistri.

Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar moliyaviy-iqtisodiy tajribasidan shuni ko'rish mumkinki, moliyaviy nazorat tizimida xususan, banklar faoliyatini nazorat qilishda ichki auditni o'rni muhim va ahamiyatlidir.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishida aynan bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish, shu jumladan, bank faoliyatini tartibga soluvchi zamonaviy tamoyil va mexanizmlarni joriy qilish, ularning samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ymayotgan to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqildi. Shu o'rinda prezidentimizning "...tijorat banklari bilan birgalikda xorijiy investitsiyalarni olib kirish bo'yicha ishlarning qanday ahvolda ekani to'g'risida shaxsan Prezidentga axborotnoma kiritilishi ta'kidlab o'tilgan edi. O'zbekiston Respublikasi moliya – bank tizimida uzoqni ko'zlab olib borilayotgan islohotlar natijasida, moliyaviy barqarorlikka erishilmoqda. Mamlakatimiz moliya – bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarga erishmoqda.

Mustaqillik va xolislik tamoyiliga muvofiq ichki audit xizmati xodimidan auditorlik tekshiruv paytida nizolar chiqishiga yo'l qo'ymaslik, bank faoliyatidagi kamchiliklar va huquqbuzarliklarni aniqlash, shuningdek ularni bartaraf etish va bank faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish talab etiladi.

Audit (ing. audit – u eshitadi) – muayyan vakolatlar berilgan shaxslar – auditorlar (auditorlar firmalari) tomonidan xo‘jalik yuritayotgan sub’ektlarning moliyaviy hisobotlari to‘g‘riligini, ular amalga oshirgan moliyaviy va xo‘jalik operatsiyalarining mamlakat qonunlariga muvofiqligini tekshirish maqsadlarida o‘tkaziladigan moliya hujjatlari ekspertizasi va tahlili, taftish. Uning ichki audit va tashqi audit turlari bor. Ichki audit boshqaruvning korxonada xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida axborot olish, menejerlar hisobotining haqqoniyligini tasdiqlash maqsadlarini ko‘zlaydi. Tashqi audit o‘zaro mustaqil tomonlar (korxonada va auditorlik firmasi) o‘rtasida shartnoma asosida amalga oshiriladi. Auditda korxonada moliyaviy hisobotining to‘g‘riligiga baho beriladi, uning amaldagi qonunchilikka mos kelishi tasdiqlanadi. Audit yo‘nalishiga ko‘ra umumiy audit (korxonalar, birlashmalarning tashkiliy-huquqiy shakli hamda mulkchilik turlaridan qat’i nazar), bank auditi, sug‘urta tashkilotlari auditi, investitsiya institutlari auditi va boshqalarga bo‘linadi.

Auditor firmalar odatda aksioner jamiyat yoki kooperativ shaklda faoliyat ko‘rsatadi va to‘liq mustaqillikka ega bo‘ladi. Ular, o‘z ishini har bir mamlakatda yoki xalqaro miqyosda qabul qilingan hisob-kitob va taftish qoidalariga binoan olib boradi. Auditor firma ishida qatnashuvchi taftishchilar auditorlar deb ataladi. Bozor infratuzilmasi va uning qarab chiqilgan unsurlari barcha bozor turlarining faoliyat ko‘rsatishi hamda davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “korxonalaridagi ichki audit xizmati to‘g‘risida” Nizomda “ichki audit”ga quyidagicha ta’rif keltirilgan: “ichki audit - korxonada boshqaruvining ijro etuvchi organi va tarkibiy bo‘linmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ta’sis hujjatlariga va ichki hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo‘li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma’lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to‘liqliligi va ishonchliligini ta’minlash, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarning saqlanishi hamda korporativ boshqarish prinsiplari joriy etilishi bo‘yicha korxonada tarkibiy bo‘linmasining (ichki audit xizmati) faoliyati”

ichki audit — bankning ichki nazorat tizimi, shu jumladan tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruv tizimi va jarayonlarining sifati, ularning monandligi va samaradorligiga oid mustaqil bahoni taqdim etish bilan bog‘liq faoliyat;

ichki audit xizmati — bankda ichki auditni doimiy tarzda amalga oshiruvchi mustaqil tarkibiy bo‘linma;

ichki audit standartlari — Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining Banklarda ichki auditga oid tamoyillari, Ichki auditorlar institutining Ichki auditning xalqaro kasbga oid standartlari, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining;¹

Bundan tashqari, tijorat banklarida korporativ boshqaruv standartlariga muvofiq mustaqil tarkibiy bo‘linma sifatida ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish uchun bank auditi bo‘yicha boshqarma va qo‘mitaning hamda kuzatuv kengashining funksiyalari va majburiyatlari batafsil belgilandi.

Keyingi yillar mobaynida auditorlik faoliyati 3 xil rivojlanish bosqichidan o‘tdi:

1. Tasdiqlovchi audit – bunda asosan hisob registrlari va hujjatlar tekshirildi.
2. Maqsadli sistemali audit – bu bosqichda muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratildi.
3. Tavakkalchilikka asoslangan audit – sistemani nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi.

Maqsadli sistemali audit shakllanishi bilan auditorlar ichki nazorat orqali ekspertiza o‘tkaza boshladilar. Buning oqibatida shu narsa isbotlandiki, agar ichki nazorat tizimi samarali tashkil qilingan bo‘lsa, xato va kamchiliklarni aniqlash uchun muhim tekshirishlar o‘tkazishga hojat qolmaydi. Tavakkalchilikka asoslangan audit yoppasiga yoki tanlov yo‘li bilan o‘tkaziladigan tekshirish bo‘lib, u korxonada faoliyati sharoitidan kelib chiqadi va asosan tor doiradagi obyektlarni tekshirish bilan yakunlanadi. Davlat organlarining auditorlik xizmatlariga munosabati turlicha. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada auditorlik tashkilotlari mustaqil bo‘lib, ular auditorlarni o‘zlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tijorat banklarining ichki auditiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” qarori 2021.

tayyorlaydilar, tegishli malakaviy unvonlarni beradilar va keyinchalik ham ularning o'z vazifalarini vijdonan, halol bajarishlarini nazorat qilib turadilar. Boshqa Yevropa mamlakatlarida auditorlik faoliyati hukumat organlari tomonidan tashkil qilinadi. Bozorning kengayishi bilan auditorlik firmalari ko'rsatadigan xizmatlar turlari va hajmlari ham ortib boradi. Ko'plab firmalar odatdagi buxgalteriya hisobiga oid maslahatlar va xizmatlardan tashqari soliqqa tortish, boshqaruv faoliyati va axborotlarni olish texnologiyasi, marketing, moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini baholash, iqtisodiy rejalashtirish va istiqbolni belgilash, bank va sug'urta ishlari bo'yicha ham xizmat ko'rsata boshladilar. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining «Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi nizomda ichki auditga quyidagicha ta'rif keltirilgan: Ichki audit — bank xodimlarining o'z vazifalarini samarali bajarishlariga yordam berish maqsadida bank faoliyatini tekshirish va baholash uchun bank ichida doimiy asosda tuzilgan mustaqil ekspertiza. Ichki auditning asosiy maqsadi bo'lib ichki audit xizmati tomonidan bank rahbariyatiga bank faoliyatining nazorati va natijalari bo'yicha xolisona tahlil, baho, tavsiyalar va ma'lumotlar taqdim etish orqali bank kengashi va boshqaruviga bank faoliyati maqsadiga erishishiga ko'maklashish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" qarori 2021.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сон Фармонининг 1-илоvasи билан тасдиқланган —2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси.
3. Jonson J. "Improving Internal Audit in Corporate Governance: A Case Study." *Journal of Business Ethics*, 93(1), 85-96. (2010).
4. Костикова Л.В (2014). Банк России разграничил контрольные функции в кредитной организации "Внутренний контроль в кредитной организации", N 3, июль-сентябрь 2014 г
5. Нуралиев Р.Т.(2023). Роль и значение корпоративного управления в совершенствовании управления государственными активами в узбекистане. "Экономика и социум" №4(107)-1 2023. Стр. 757-762